




ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

МАҲМУДХУҶА БЕҲБУДИЙ – ЎЗБЕК ЖАДИДЧИЛИГИНИНГ АСОСЧИСИ

(Республика илмий-амалий конференция материаллари)



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ҚАРШИ МУҲАНДИСЛИК-ИҚТИСОДИЁТ ИНСТИТУТИ

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ҲУЗУРИДАГИ
ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ АКАДЕМИЯСИ ҚАРШИ ҲУДУДИЙ
ФИЛИАЛИ**

**МАҲМУДХЎЖА БЕҲБУДИЙ –
ЎЗБЕК ЖАДИДЧИЛИГИНИНГ
АСОСЧИСИ**

(Республика илмий-амалий конференция материаллари)

20 ноябрь 2020 йил

Қарши-2020

49	Худайкулов Д	Марказий осий халқларида саводхонлик масаласи	203
50	Hamdamova Sh.	Turkiston xalqining buyuk nomoyondasi	206
3-ШУЪБА. МАХМУДХУЖА БЕХБУДИЙ – ДРАМАТУРГИЯ АСОСЧИСИ			
51	Исоқ Тўраев	Махмудхўжа бехбудий ва театр санъати	208
52	Ибрагимов Э.	Бехбудий - XX аср Туркистон маърифатпарварлик гоъларининг асосчиси	210
53	Эштемиров Ж.	Иден махмудходжи Бехбуди в становлении и развитии национального сознания народов Туркестана	215
54	Rustamov D	Lyric poet and comedian Muhammad Aminkhoja - Muqimi's contribution to the uzbek national literature and his legacy to the uzbek literature	219
55	Қурбонова М.	Махмудхўжа Бехбудийнинг “Падаркуш” драмасини ёш авлодни тарбиялашдаги ахамияти	223
56	Юлдашев Ф	Махмудхўжа Бехбудий – ўзбек драматургияси асосчиси	226
57	Бакиев Б	Независимость - новая эра в деятельности творческой интеллектуальности узбекистана	230
58	Bobilova Sh.	Mahmudxo'ja Behbudiy-o'zbek dramaturgiyasi asoschisi	233
59	Муфти-заде Г.	“Падаркуш” ўзбек драматургиясининг биринчи миллий фожияси	238
60	Мамадиева Н.	Махмудхўжа Бехбудийнинг “Падаркуш” драмасида илм-маърифат ва ахлоқ масалалари	242
61	Shadmanova N	Scientific and historical significance of jadid fitrat in uzbek classical music and its history	245
62	Xudoyorova N.	Mahmudxo'ja Behbudiy-o'zbek dramaturgiyasining peshqadam vakili	249
63	Sharipova M.	Behbudiy va o'zbek dramaturgiyasi	255
64	Тўхтаев Ж.	Бехбудий -Жадидчилик харакати етакчиси	257
4-ШУЪБА. БЕХБУДИЙ ВА ЖАДИДЧИЛИК ХАРАКАТЛАРИ			
65	Xoliqova R.	Turkistonda jadidlarining istiqlol uchun kurashlari tarixidan	259
66	Kholmatova Sh.	Mahmudhodja Behbudi and the jadid movement in Turkestan	267
67	Мулладжанова Р.	Махмудхўжа Бехбудий – Туркистонда жадидчилик харакатининг “отаси”.	270
68	Жамолова Д.	Махмудхўжа Бехбудийнинг Туркистондаги сиёсий жараёнларга муносабати	273
69	Мингноров А.	Махмудхўжа Бехбудий фаолиятининг миллий матбуотда ёритилиши	277
70	Ибрагимов С.	Жадидчилик харакати	282
71	Тўраева С.	Жадидчилик ва Фитрат	288
72	Hamroyeva N. Bahronova M	Mahmudxo'ja Behbudiy va jadidchilik harakati	292
73	Sattorov A.	Mahmudxo'ja Behbudiy – o'rta osiyo jadidchilik harakati otasi	294
74	Хурсандов А	Махмудхўжа Бехбудий - Туркистон жадидчилик харакатининг йўлбошчиси	299

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY VA JADIDCHILIK HARAKATI

Nafisa Hamroyeva,
BuxDU o'qituvchisi
Mashhura Bahronova,
BuxDU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya. XIX asroxiri - XX asr boshlariga kelib, Turkistonda millat taqdiriga tahdid soluvchi o'taqaltis va og'ir ichki tarixiy muhit paydo bo'ldi. Ana shu tarixiy muhit ehtiyoji o'laroq jadidchilik harakati ham yuzaga keldi. Mazku rmaqolada ma'rifatpar va arbobimiz M.Behbudiy va uning jadidchilik harakatidagi o'rni haqida so'z boradi.

Kalitso'zlar: jadid, jadidchilik harakati, M.Behbudiy, ma'rifatparvarlik.

Аннотация. К концу XIX - началу XX веков в Туркестане сложилась очень опасная и сложная внутренняя историческая среда, угрожавшая судьбе нации. Именно в этом историческом контексте возникло движение джадидов. Эта статья посвящена нашему просвещенному предку М. Бехбуду и его роли в движении джадидов.

Ключевые слова: джадид, движение джадидов, М. Бехбуду, просвещение.

“Jadid” arabcha so'z bo'lib, “yangi” degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun ham yangilik va islohotchilikka intiluvchi, yangilik yaratuvchi faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan taraqqiy parvar, ilg'or ruhdagi milliy ziyolilar tarixda “jadid” degan nomga musharraf bo'ldilar. Ularning harakati esa jadidchilik deb nomlandi. Bu harakatning paydo bo'lishi bevosita o'sha davrdagi ichki muhit hamda tashqi xalqaro maydondagi ijtimoiy-siyosiy va demokratik yangilanishlar bilan bog'liq bo'ldi. Jadidlar millat va xalqning g'alayon va qo'zg'olonga, inqilobiy buzg'unchilik kabi yovvoyilikka da'vat etmadi. Aksincha, ularni diniy-dunyoviy ma'rifat, ilm-fan, madaniyat va yangiliklar bilan qurollantirib tarbiyalash, o'zligini anglatish, ijtimoiy-ma'anviy g'aflatu yqusidan uyg'otib, turmushtarzi, tafakkuri, ma'naviyati, madaniyati, adabiyoti va maorifini o'zgartirishga bel bog'ladilar. Jadidlar maorif, jurnalistika – matbuot, adabiyot va san'at va hatto xayriya ishlarida faol bo'ldilar, biz anashu jadidlar harakati yo'nalishlarida Mahmudxo'ja Behbudiyning qo'shgan hissasi haqida fikr yuritamiz.

Jadidlar maorifi haqida gap ketganda, shu vaqtgacha islom dunyosida sira ham ko'rinmagan ilg'or va tezkor o'qitish “Savtiya” (tovush) usuliga asoslangan jadid maktablari tashkil topganini dastavval qayd etib borish kerak. Bu maktablarda bolalar bir yilda savod chiqarib, mukammal o'qish va yozishni o'zlashtiradi. Maktab ochgan jadidlar dastur, qo'llanma va darsliklarni ham o'zlari yaratdilar. Sayidrasul Sayidazizovning “Ustodi avval”, Munavvar qori Abdurashidxonovning “Adibiavval”, “Adibisoniy”, Abdulla Avloniyning “Birinci muallim” va “Ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yohud ahloq” kabi kitoblari orasida Mahmudxo'ja Behbudiyning “Qisqacha umumiy geografifa”, “Bolalar maktubi”, “Islomning qisqacha tarixi”, “Amaliyoti islom”, “Aholi

geografiyasiga kirish”, “Rossiyaning qisqacha geografiyasi” kabi darsliklari ham bor edi. Behbudi yana shunday darsliklari orqali jadid maktablari rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan. Bu davrda jaded matbuoti va jurnalistikasi ham jadidchilik harakatining ikkinchi bir muhim faoliyati sifatida rivojlandi. Turkiston jadidlari rus demokratik va inqilobiy harakatining yutuqlaridan ham samarali foydalandilar. Zolim “oqposhsho” Nikolay II inqilobiy-demokratik harakat bosimi ostida 1905-yil 17-oktyabrda maxsus manifestga imzochekib, demokratiya, matbuotvaso‘z, har xil yig‘inlar o‘tkazish erkinligini joriy qilishga majbur bo‘ldi. Buni jadidlar katta quvonch bilan kutib oldilar. Manashundan so‘ng jadidlar millat himoyasi uchun jangovar qalqon va muazzammin bar bo‘lgan gazeta va jurnallarni tashkil etish uchun juda shaxdam kurashadilar. Toshkentda Ismoil Obidiy “Taraqqiy” (1906), Munavvarqori Abdurashidxonov “Xurshid” (1906), Abdulla Avloniy “Shuhrat” (1907), Sayidkarim Sayidazimboyev “Tujjor” (1907) jurnalini nashr etishga muvaffaq bo‘ldilar. Samarqandda esa Muhmudxo‘ja Behbudiy “Samarqand” ruscha (1913) gazetasiva “Oyna” (1913-1915) jurnalini chiqardi. Ko‘rinib turibdiki jadid matbuoti ham Behbudiy xizmatlaridan xoli emas. Bu gazeta va jurnallar doimo maxfiy politsiya ayg‘oqchilari kuzatuvini, ta‘qibi ostida bo‘ldilar.

Jadidchilik harakati jaded adabiyotining asoschilari bo‘lgan yirik iste‘dod egalari-jadidadibi, shoiri, dramaturgi va san‘ati arboblarni ham tarbiyaladi. Jadidshunos olimlarning ta‘kidlashicha, ularning 1905-1917-yillarda adabiy-madaniy harakatchilikda qizg‘in faoliyat ko‘rsatganlari saksondan ortiq bo‘lgan. Ular safida Behbudiy ham dramaturg sifatida “Padarkush yoki o‘qimagan bolaning holi” dramasi yaratgan. Bu asarida u savodsizlik, johillikning ayanchli oqibatlarini ko‘rsatib, yoshlarni ilmi, madaniyatli bo‘lishga chaqiradi. Pyesa 1911 yildayozilib, 1912 yilda “Turon” gazetasida bosiladi. 1913 yilga kelib Samarqandda kitob holda chop etilgan “Padarkush” kata qiyinchilik va qarshiliklarga uchrab, nihoyat 1914 yilning 15 yanvarida Samarqandda sahna yuzini ko‘radi. 27-fevralda esa Toshkentda, Abdulla Avloniyasossolgan «Turon» teatr truppasi tomonidan namoyish etiladi. Va ushbu sana, ya‘ni 1914 yilning 27-fevrali o‘zbek milliy teatriga asos solingan kun sifatida tarixga kirdi. Behbudiyning mazkur sahna asari birinchidan, millatni ma‘rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o‘ynagan bo‘lsa, ikkinchidan, professional o‘zbek teatri va dramaturgiyasining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsa jadidlar yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan musulmon mutaassibliki kuchli bo‘lishiga qaramay jamiyatda tub madaniy – taraqqiy burilishi yasashga muvaffaq bo‘ldilar. Turkistonda milliy tafakkur o‘zgardi, millat ijtimoiy g‘aflat yqusidan yg‘onib siyosiy va ma‘rifiylashdi.

Millat adabiyoti yangilandi, milliy teatr maorif va maktab, matbuot, madaniy-ma'rifiyu yushma (jamiyat) va siyosiy partiyalar paydo bo'ldi. Bularning samarasi butunlay yangi, ya'ni jadid madaniyati rivoj topdi. Bu madaniyat hozirgi zamonaviy madaniyatimizning poydevor toshi bo'ldi. Ana shu madaniyatning buyuk shaxslaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti ham biz yosh avlodga umrboqiy ibrat namunasi sifatida yashay veradi.

Foydalanilgan adaboyotlar ro'yxati

1. Agzamxo'jayev S. "Turkiston muxtoriyati". T.; "Sharq", 2011 y.
2. Istiqlol qahramonlari. "Mahmudxo'ja Behbudiy" T. 2009 y.
3. Jo'rayev N, Karimov Sh. "O'zbekistontarixi". T.; "Sharq", 2011 y.
4. Karimov N. "XX asradabiyoti". T., 2008 y.
5. Mustafo Cho'qayev "Istiqlol jallodlari" T.; "Sharq", 1992 y.
6. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" II kitob T; sharq 2000 y.

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY – O'RTA OSIYO JADIDCHILIK HARAKATI OTASI

**Sattorov Asrorjon Akramjonovich
O'zbekiston Milliy gvardiyasi Harbiy-
texnik instituti o'qituvchisi**

Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidaga Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatchiligining eng yirik namoyandasi, yangi davr o'zbek madaniyatining asoschisidir. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o'zbek dramaturgiyasini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist. U tariximizning g'oyat og'ir va murakkab bir davrida yashadi. XVI asrdan boshlangan inqiroz va turg'unlik, o'zaro janjal, mahalliy urug'chilik nizolari millatni holdan toydirgan, imkondan foydalanib o'lkani zabt etgan Rusiya zo'r berib, uni turg'un va tutqun saqlashga urinardi. Mana shunday bir sharoitda Vatanni butunlay yo'q bo'lish xavfidan saqlab qolish, avlodlarni erk va ozodlik, mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotda boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudiy boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi. Turkistonda "Usuli jadid", "Usuli saviya" nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktabni shular tashkil qilib, shular birinchi bo'lib zamonaviy maktab g'oyasini ilgari surdilar. Ular o'z hisoblaridan maktablar ochib, yosh avlodni istiqloлга tayyorladilar, she'r va maqolalar, sahna asarlari orqali milliy ongni shakllantirishga, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirishga urindilar. Rusiya qonunlari imkon bergan darajada Turkiston